NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

Xatirchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 34 uy, e-mail: xatirchi@nv.uz

2023 - yil 25 - yanvar 15-5-77-Q/23 Xatirchi tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-426-sonli qarorining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlari samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-426-sonli hamda Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 16-dekabrdagi 251-5-0-Q/22-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta’minlash, qor ko‘chishi va yer ko‘chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo‘yicha tuman komissiyasining tarkibi 1-ilovaga;

Tumanda aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari, toshqinga qarshi tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari (Q.Farmonov) Nizom talablari bajarilishi ustidan tizimli nazorat

o‘rnatsin.

4. Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Y.Abduxalimov) toshqinga qarshi tuman komissiyasining ishini tashkiliy-texnik jihatdan ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **S.Nizamov**

Xatirchi tuman hokimining
2023 yil 25 yanvardagi
15-5-77-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta’minlash, qor ko‘chishi va yer ko‘chkisi xodisalari xavfini kamaytirish bo‘yicha tuman komissiyasining

T A R K I B I

T/r	F.I.Sh		Ish joyi va lavozimi
1.	S.F.Nizamov	–	Tuman hokimi, **Komissiya raisi**
2.	Q.O.Farmonov	–	Tuman hokimi o‘rinbosari, Komissiya raisining o‘rinbosari
3.	Y.A.Abduxalimov	–	Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i, Komissiya raisining o‘rinbosari
4.	N.A.Mirzayev	–	Tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i, Komissiya raisining o‘rinbosari
Komissiya a’zolari:			
5.	F.R.Usmonov	–	Tuman tibbiyot birlashmasi rahbari
6.	F.K.Nuriddinov	–	Tuman sanitariya-epedimiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i
7.	J.M.Shomurodov	–	Tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i
8.	V.A.Narzullayev	–	Tuman ETK boshlig‘i
9.	B.S.Sultonov	–	“Xatirchitumangaz” gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i
10.	Sh.A.Usmonov	–	Tuman telekommunikatsiya tarmoqlari bog‘lamasi boshlig‘i
11.	N.A.Haydarov	–	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
12.	J.Q.Ergashov	–	Milliy gvardiya Xatirchi tumani qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i
13.	O.A.Ruzimurodov	–	Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
14.	I.T. Muhammadiyev	–	Xatirchi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i
15.	J.Qahhorov	–	Tuman moliya bo‘limi boshlig‘i
16.	I.Muxammadiyev	–	Tuman yo‘llardan foydalanish UK boshlig‘i
17.	F.Bobonazarov	–	Tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i
18.	B.Raximov	–	“Suvoqova” DUK tuman filiali boshlig‘i
19.	F.S.Pirmatov	–	“Navoiyneftbazasi” MChJ Xatirchi filiali boshlig‘i
20.	S.M.Rajabov	–	Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi bo‘linma boshlig‘i, **Komissiya kotibi**

Izoh. Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Xatirchi tuman hokimining
2023 yil 25 yanvardagi
15-5-77-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Tumanda aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom tumanda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlarni barvaqt aniqlash, Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta’minlash, qor ko‘chishi va yer ko‘chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo‘yicha tuman komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Toshqinga qarshi tuman komissiyasi)ning faoliyatini tashkil etish, aholini va hududlarni ular bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tartibini belgilaydi.

2. Tumanda aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, shuningdek, mazkur Nizomga muvofiq tashkil etiladi.

3. Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari Toshqinga qarshi tuman komissiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

4. Toshqinga qarshi tuman komissiyasining vakolati doirasidagi masalalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq topshiriq va vazifalari barcha bo‘limlar, korxona hamda tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy mansubligidan qat’i nazar boshqa tashkilotlar, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi shart.

5. Joylarda aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hamda geologik hodisalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarining tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida tuman hokimligida Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta’minlash, qor

ko‘chishi va yer ko‘chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo‘yicha tuman komissiyasi tuziladi.

6. Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari mazkur Nizomga ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha tashkil etiladi.

2-bob. Toshqinga qarshi tuman komissiyasining faoliyatini tashkil etish

7. Tuman hokimi toshqinga qarshi tuman komissiyasiga raislik qiladi.

8. Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi Toshqinga qarshi tuman komissiyasining ishchi organi (keyingi o‘rinlarda - ishchi organ) hisoblanadi.

Ishchi organ:

Toshqinga qarshi tuman komissiyasining yig‘ilishlari kun tartibiga kiritiladigan masalalarni tayyorlaydi, yig‘ilish bayonini yuritadi va rasmiylashtiradi;

Toshqinga qarshi tuman komissiyasi a’zolariga yig‘ilish o‘tkaziladigan sana va joy to‘g‘risida xabar beradi;

Toshqinga qarshi tuman komissiyasining yig‘ilish bayonlaridagi topshiriqlar ijro etilishini tahlil qiladi, mavjud muammolarning yechimlari yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va ularning Toshqinga qarshi tuman komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini tashkil etadi.

9. Toshqinga qarshi tuman komissiyasi o‘z faoliyatini doimiy asosda, uning raisi tomonidan tasdiqlanadigan yig‘ilish bayoniga va chora-tadbirlar rejasiga, ushbu Nizomga, shuningdek, Toshqinga qarshi hukumat va viloyat komissiyasi tomonidan belgilangan asosiy tadbirlarga muvofiq tashkil etadi ва amalga oshiradi.

10. Toshqinga qarshi tuman komissiyasining yig‘ilishlari, zaruratga ko‘ra, biroq yiliga kamida bir marta ushbu Nizomda belgilangan muddatda o‘tkaziladi va uning qarorlari yig‘ilish bayonlari bilan rasmiylashtiriladi.

11. Zarur hollarda, mazkur Nizomda nazarda tutilgan ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun Toshqinga qarshi tuman komissiyasi va Toshqinga qarshi tuman komissiyasi bo‘lim, korxona, tashkilotlar mutaxassislaridan iborat ishchi guruhlarni tuzadi.

3-bob. Ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xavfli gidrometeorologik

hodisalar va geologik jarayonlarni barvaqt aniqlash

12. Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmati Samarqand stansiyasi:

doimiy ravishda tuman hududida xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlarning monitoringini olib boradi va natijalarini har oy yakunida, favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi tug‘ilganda yoki ro‘y berganda zudlik bilan ishchi organga taqdim etadi;

har yili yozgi mehnat va maktab ta’tillari boshlanishidan oldin tog‘ va tog‘oldi hududlardagi bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari, sanatoriylar, dam olish uylari, sayyohlik bazalari va pansionatlar joylashgan hududlarning gidrologik va muhandislik-geologik holatini o‘rganib chiqadi va natijalari bo‘yicha rasmiylashtirilgan dalolatnomalarni ishchi organga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali taqdim qiladi.

13. Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi, ichki ishlar bo‘limi hamda Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmati Samarqand stansiyasi bilan birgalikda zaruratga ko‘ra, yuqori tog‘ tizimlaridagi ko‘llarning holatini monitoring qilish hamda favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi to‘g‘risida o‘z vaqtida ogohlantirish maqsadida texnik vositalar va barqaror aloqa bilan ta’minlangan vaqtincha kuzatuv postlarini tashkil etadi va ularning faoliyatini ta’minlaydi.

4-bob. Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tartibi

14. Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmati Samarqand stansiyasi har yili 20-fevralga qadar Toshqinga qarshi tuman komissiyasiga, uning ishchi organiga va Toshqinga qarshi tuman komissiyasiga xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar faollashishi mumkin bo‘lgan hududlar, ushbu hududlarda joylashgan aholi punktlari va obyektlar, aholisi vaqtincha ko‘chirilishi yoki xavfli hududlardan xavfsiz hududlarga doimiy ko‘chirilishi lozim bo‘lgan xo‘jaliklar ro‘yxati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, aholini va hududlarni muhofaza qilish maqsadida muhandislik-texnik va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha takliflarni taqdim etadi.

15. Ishchi organ har yili 1-martga qadar bo‘lim, korxona, tashkilotlar va tuman hokimligi bilan birgalikda taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan tegishli yil uchun aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik

jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda Toshqinga qarshi tuman komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

16. Toshqinga qarshi tuman komissiyasi har yili 5-martga qadar tegishli yilda aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni tasdiqlaydi.

17. Bo‘lim, korxona, tashkilotlar har yili 10-martga qadar o‘z tizimidagi obyektlarni toshqinlar, sel oqimlari va ko‘chki hodisalaridan muhofaza qilish borasida tegishli yil uchun chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu dasturlarda belgilangan tadbirlarning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini ta’minlaydi.

18. Toshqinga qarshi tuman komissiyasi har yili 10-martga qadar Toshqinga qarshi hukumat va viloyat komissiyasi yig‘ilishining bayonidagi topshiriqlar ijrosini joylarda tashkil etish maqsadida tegishli hudud uchun zarur chora-tadbirlarni belgilaydi.

19. Toshqinga qarshi hukumat va viloyat komissiyasining yig‘ilishi bayoniga asosan tegishli korxona va tashkilotlar tomonidan o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarni belgilangan muddatlarda bajarilishi ta’minlanadi.

20. Xavfli geologik jarayonlarni ko‘zatish xizmati Samarqand stansiyasi:

bo‘lim, korxona, tashkilotlar, tuman hokimligiga monitoring davomida tasarrufidagi obyektlarga xavf soluvchi gidrometeorologik va geologik jarayonlardan muhofaza qilish bo‘yicha muhandislik-texnik va boshqa chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan taqdimnomalar kiritadi hamda Favqulodda vaziyatlar bo‘limi bilan birgalikda ushbu taqdimnomalarning bajarilishini nazorat qiladi;

Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi, korxona, tashkilotlar, tuman hokimligi bilan hamkorlikda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish maqsadida kuzatuvlar asosida xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar (sel, toshqin, qor ko‘chkisi, ko‘chki xavfi va boshqalar) ro‘y berishi xavfi mavjud hududlarda joylashgan aholi punktlari, texnik obyektlar, aholisi vaqtincha ko‘chiriladigan yoki xavfli hududlardan doimiy ko‘chirilishi lozim bo‘lgan xo‘jaliklar bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish

yuzasidan dalolatnomalar rasmiylashtiradi;

zarur hollarda, o‘rganilgan obyektlar faoliyatini vaqtincha to‘xtatish yoki tegishli himoya tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha ushbu obyektlar rahbarlariga yozma taqdimnomalar kiritadi.

21. Tuman hokimligi:

tegishli bo‘lim, korxona, tashkilotlar bilan hamkorlikda xavfli uchastkalarni aniqlash uchun sel va toshqinlar mavsumidan oldin gidrotexnik inshootlar, ko‘priklar, qirg‘oqlar, daryolar va soylar o‘zanlari holatini o‘rganadi, bahor-yoz mavsumida toshqin suvlarini betalafot o‘tkazib yuborish maqsadida kechiktirib bo‘lmaydigan himoya tadbirlari va avariya-tiklash ishlari olib borilishini ta’minlaydi;

daryo, kanal va soylarning suv o‘tkazish qobiliyati pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan noqonuniy qurilishlarga, daryo o‘zanlarida noruda materiallar noqonuniy qazib olinishiga va boshqa xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaydi;

xavfli zonalar mavjud hududlarda xavfli gidrometeorologik va geologik hodisalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarga qarshi o‘z vaqtida choralar ko‘rish, shuningdek, aholini va hududlarni ulardan muhofaza qilish ishlariga tezkor rahbarlikni tashkil etish uchun joylarda tuman shtabini tashkil etadi, ularni transport vositalari, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari va aloqa vositalari bilan ta'minlaydi;

tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi hamda Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmati Samarqand stansiyasi taqdimnomalariga asosan sel, toshqin, qor ko‘chkisi va ko‘chki xavfi mavjud hududlarda joylashgan, ko‘chirilishi lozim bo‘lgan xo‘jaliklar aholisini xavfsiz joylarga vaqtincha ko‘chirish va zaruratga ko‘ra bosqichma-bosqich doimiy ko‘chirish bo‘yicha kompleks choralarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Xavfsiz hududlarga ko‘chirilgan aholining yetarli darajada hayot kechirishi hamda faoliyatini tashkil etadi va tegishli targ‘ibot ishlarini amalga oshiradi;

bo‘lim, korxona, tashkilotlar, tuman hokimligi tegishli daryo va soylar qirg‘oqlarini mustahkamlash va boshqa muhofaza ishlarini amalga oshiradi, ularni amalga oshirish uchun xarajatlarni aniq hisob-kitoblar asosida mahalliy byudjetning zaxira mablag‘lari hisobidan moliyalashtiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarga tog‘ va tog‘oldi hududlardan turar va noturar joy binolarini qurish uchun yer uchastkalarini ajratishda Xavfli geologik jarayonlarni ko‘zatish xizmatidan ushbu yer uchastkalari xavfli geologik jarayonlar va gidrometeorologik hodisalar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hududga tushgan yoki tushmaganligi yuzasidan tegishli xulosalar olinishini ta’minlaydi.

22. Tuman irrigatsiya bo‘limi:

suv omborlari, gidroelektrostansiyalar, gidrotexnika inshootlari va irrigatsiya tizimlarining xavfsiz, ishonchli ishlashini, shuningdek, toshqin suvlari va sel oqimlarini betalofot o‘tkazib yuborishini ta'minlaydi;

suv omborlari, gidroelektrostansiyalar, boshqa gidrotexnika inshootlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan avariyaviy holatlar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moddiy-texnik vositalar va texnologik uskunalar ehtiyot qismlari zaxiralarini yaratadi;

sel oqimlari va toshqinlar mavsumida barcha suv omborlari, gidroelektrostansiyalar, yirik va muhim ahamiyatga ega boshqa gidrotexnika inshootlarida rahbarlar tarkibi va mutaxassislarning kechayu kunduz navbatchiligini tashkil etadi.

23. Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi:

qor ko‘chkisi, sel oqimlari, suv toshqini va yer ko‘chki xavfi mavjud davrlarda bo‘lim hamda bo‘linmalarning qidiruv-qutqaruv tuzilmalari va tezkor guruhlari shaxsiy tarkibi kuchaytirilgan ish rejimiga o‘tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi tug‘ilganda yoki ro‘y berganda, belgilangan vazifalarni bajarishga ularning doimiy shayligini ta’minlaydi;

xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatlarni kuzatib boradi, ma’lumotlarni to‘playdi va tahlil qiladi hamda favqulodda vaziyatlar xavfiga qarshi samarali kurashish, ular yuzaga kelganda oqibatlarini yumshatish, bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar to‘g‘risida Toshqinga qarshi tuman komissiyasiga o‘z vaqtida takliflar kiritadi;

Xatirchi telikommunikatsiya tarmoqlari bog‘lanmasi bilan birgalikda aloqa va xabar berish tizimlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishini, tegishli bo‘lim, korxona, tashkilotlar, tuman hokimligiga hamda aholiga favqulodda vaziyatlar xavfi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, axborotlar o‘z vaqtida yetkazilishi va taqdim etilishini ta’minlaydi;

bahor-yoz mavsumida tegishli ko‘nikmalarni rivojlantirish va zarur himoya ishlarini amalda bajarish uchun qor ko‘chishi, sel oqimlari, suv toshqini, ko‘chki xavfi mavjud hududlarda amaliy maxsus-taktik o‘quv mashqlarini o‘tkazadi;

gidrometeorologik vaziyatdan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi ekinlarini do‘lli hodisalardan muhofaza qilish uchun gidrometeorologik jarayonlarga ta’sir qilish va boshqarishni ta’minlaydi;

Toshqinga qarshi tuman komissiyasi qarorlari ijrosini samarali muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi, shuningdek, uning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta’minlaydi.

24. Tuman ichki ishlar bo‘limi:

bahor-yoz mavsumida yo‘llarda, transport infratuzilmasida, shuningdek, fuqarolar (shu jumladan, vaqtincha xavfsiz hududlarga ko‘chirilgan aholining), transport vositalari, texnikalar gidrometeorologik va geologik xavfli hududlarda harakatlanishining oldini olish maqsadida qo‘shimcha postlar faoliyatini tashkil qiladi, ogohlantiruvchi belgilarni o‘rnatadi;

Xatirchi tumani 4R56 “Oqtosh sh. — Yangirabot sh. — Langar q. — Chuya q.” avtomobil yo‘lining 65-68 kilometrlari oralig‘ida joylashgan Langar dovoni hamda boshqa muhum ahamiyatga ega transport kommunikatsiyasida aholi va transport vositalarining xavfsiz harakatini ta’minlaydi.

25. Tuman Mudofaa ishlari va Milliy gvardiya tuman Qo‘riqlash bo‘limi korxona, tashkilotlar, tuman hokimligi bilan hamkorlikda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda toifalangan gidrotexnika inshootlarining qo‘riqlanishi kuchaytirilishini ta’minlaydi.

26. Tuman moliya va iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limlari:

tumanda va qo‘shni viloyatlar bilan chegaradosh hududlardagi toshqin, sel va ko‘chki xavfi mavjud hududlarda aerovizual o‘rganishlarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda maqsadli moliyaviy mablag‘lar ajratadi;

sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini moliyalashtirish manbalari yuzasidan tuman hokimligiga taklif kiritadi;

toshqin suvlari va sel oqimlarining barqaror hamda xavfsiz o‘tkazilishini ta’minlash bo‘yicha tasdiqlangan hududiy manzilli dastur asosida kelgusi yil uchun

yig‘ma manzilli dasturlar ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

yig‘ma manzilli dasturlarga kiritilgan tadbirlar uchun aniq hisob-kitoblarga asosan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda investitsiya dasturlari doirasida mablag‘lar ajratadi.

27. Tuman tibbiyot birlashmasi aholining vaqtincha yoki doimiy ko‘chirilgan joylarida fuqarolarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatadi, ushbu hududlarda sanitariya-epidemiologik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar uchun yetarli miqdorda epidemiyaga qarshi va boshqa dori-darmonlar zaxirasini yaratadi.

28. Tuman yo‘llardan foydalanish UK, tuman obodonlashtirish boshqarmasi:

tegishli bo‘lim, korxona, tashkilotlar bilan hamkorlikda tumanda tabiiy hodisalar oqibatida zarar ko‘rgan avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, boshqa yo‘l infratuzilmasi obyektlarini tiklash uchun zarur bo‘lgan kuch va vositalar doimiy shayligini ta’minlaydi;

muhim ahamiyatga ega transport infratuzilmalarida aholi va transport vositalarning xavfsiz harakatini ta’minlash uchun o‘z vaqtida muhandislik-himoya tadbirlarini amalga oshiradi.

29. “Navoiyneftbazasi” MChJ Xatirchi filiali toshqin suvlari, sel oqimlari, ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlari uchun yoqilg‘i resurslarini barqaror yetkazib berishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etadi, muvofiqlashtiradi va amalga oshiradi.

30. Sportni rivojlantirish bo‘limi gidrometeorologik va geologik xavfli uchastkalarda turizm xizmatlari va sport tadbirlarini tashkil etishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noxush holatlar (favqulodda vaziyat)ning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiradi.

31. Toshqinga qarshi tuman komissiyasi tomonidan bo‘lim, korxona, tashkilotlar ularning vakolatiga kiradigan masalalar doirasida aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha boshqa vazifalar ham belgilanishi mumkin.

32. Bo‘lim, korxona, tashkilotlar har chorak yakuni bo‘yicha aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan amalga oshirilgan

ishlar to‘g‘risida ishchi organga ma’lumot taqdim etib boradi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

33. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.